

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-avgust***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 61-222-67-45***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **4 589** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **75** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 514** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **7 321,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **108,6** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **214,0** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **87,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7 107,6** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **109,5** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **964,1** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **114,0** %) tashkil etdi.

| | Jami, mlrd so'm | 2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda |
|--------------------------------------|--------------------|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 7 321,6 | 108,6 |
| Nukus shahri | 1 594,5 | 113,8 |
| tumanlar: | - | |
| Amudaryo | 602,3 | 106,2 |
| Beruniy | 344,0 | 106,1 |
| Bo'zator | 89,1 | 105,8 |
| Qorao'zak | 314,4 | 104,3 |
| Kegeyli | 278,8 | 105,1 |
| Qo'ng'iro't | 552,6 | 107,1 |
| Qonliko'l | 269,8 | 107,8 |
| Mo'ynoq | 78,8 | 104,5 |
| Nukus | 206,6 | 106,3 |
| Taxiatosh | 274,9 | 103,1 |
| Taxtakopir | 239,4 | 107,4 |
| To'rtko'l | 844,6 | 112,3 |
| Xo'jayli | 663,4 | 106,5 |
| Chimboy | 371,6 | 110,8 |
| Shumanay | 154,1 | 104,1 |
| Ellikqal'a | 442,6 | 107,7 |

2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan respublikaning To'rtko'l (**112,3** %), Chimboy (**110,8** %) Qonliko'l (**107,8** %), tumanlari va Nukus shahrida (**113,8** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Ulushi, foizda




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri 21,8 % bilan 1 594,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mo'ynoq tumani 1,1 % bilan 78,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-avgust oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7 107,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **9,5 %** ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **97,1 %** ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **87,2 %** ni va **214,0** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **2,9 %** ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,8 %), Nukus (99,8 %) va Qonliko'l (100,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 2,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh (17,6 %), Beruniy (6,4 %), Nukus shahri (3,7 %) va To'rtko'l (3,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2,9 %

97,1 %

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*




2024- yilning yanvar-avgust oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 644,6** ming so'mni (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **107,2** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako'pir (6 153,7 ming. so'm), Qorao'zak (5 769,2 ming. so'm) va Xo'jayli (5 143,0 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-avgust), foizda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

| | Jami, mlrd so'm | 2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda |
|--------------------------------------|--------------------------------|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 578,4 | 138,4 |
| Nukus shahri | 75,0 | 120,7 |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 44,1 | 118,0 |
| Beruniy | 38,0 | 317,4 |
| Bo'zatov | 12,5 | 83,4 |
| Qorao'zak | 25,4 | 128,1 |
| Kegeyli | 45,9 | 78,9 |
| Qo'ng'iro't | 31,1 | 77,3 |
| Qonliko'l | 27,3 | 299,1 |
| Mo'ynoq | 10,6 | 105,3 |
| Nukus | 25,0 | 209,0 |
| Taxiatosh | 14,2 | 94,5 |
| Taxtako'pir | 24,4 | 161,9 |
| To'rtko'l | 79,6 | 204,1 |
| Xo'jayli | 39,5 | 105,7 |
| Chimboy | 48,3 | 183,2 |
| Shumanay | 13,1 | 120,8 |
| Ellikqal'a | 24,2 | 139,0 |


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-avgust)



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **964,1** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **114,0 %** ni tashkil etdi. Sh jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **578,4** mlrd so'mni (**138,4 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **385,6** mlrd so'mni tashkil etdi (**90,1 %**).













2024- yilning yanvar-avgust oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **578,4** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**279,9** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

| | | |
|--|---|---|
| <p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>279,9 mlrd so'm</p>  <p>48,4 %</p> | <p>Non va non mahsulotlari</p> <p>33,6 mlrd so'm</p>  <p>5,8 %</p> | <p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>76,2 mlrd so'm</p>  <p>13,2 %</p> |
| <p>Tovuq go'shti</p> <p>30,3 mlrd so'm</p>  <p>5,2 %</p> | <p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>17,9 mlrd so'm</p>  <p>3,1 %</p> | <p>Tuxum</p> <p>30,4 mlrd so'm</p>  <p>5,2 %</p> |
| <p>Ziravorlar</p> <p>18,0 mlrd so'm</p>  <p>3,1 %</p> | <p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>32,0 mlrd so'm</p>  <p>5,5 %</p> | <p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>22,5 mlrd so'm</p>  <p>3,9 %</p> |
| <p>Tuzlamalar</p> <p>20,8 mlrd so'm</p>  <p>3,6 %</p> | <p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>16,8 mlrd so'm</p>  <p>2,9 %</p> | <p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>- mlrd so'm</p> <p>- %</p> |

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **385,6** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **327,3** mlrd so'm, qo'y va echkilar – **50,6** mlrd so'mni, otlar – **5,3** mlrd so'mni, parrandalar – **2,4** mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

| | | |
|--|---|--|
| <p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>181,6 mlrd so'm</p>  <p>47,1 %</p> | <p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>72,6 mlrd so'm</p>  <p>18,8 %</p> | <p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>73,1 mlrd so'm</p>  <p>19,0 %</p> |
| <p>Qo'ylar</p> <p>31,9 mlrd so'm</p>  <p>8,3 %</p> | <p>Otlar</p> <p>5,3 mlrd so'm</p>  <p>1,4 %</p> | <p>Echkilar</p> <p>18,7 mlrd so'm</p>  <p>4,8 %</p> |
| <p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,6 mlrd so'm</p>  <p>0,4 %</p> | <p>Tovuqlar</p> <p>0,8 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p> | <p>Quyionlar</p> <p>- mlrd so'm</p>  <p>-%</p> |
| <p>Qushlar</p> <p>- mlrd so'm</p>  <p>-%</p> |  |  |

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 111 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 111 tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd so'm | 2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda |
|--------------------------------------|-------------------|--|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 251,3 | 108,0 |
| Nukus shahri | 108,1 | 109,2 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Amudaryo | 11,0 | 107,2 |
| Beruniy | 8,4 | 107,5 |
| Bo'zatov | 0,7 | 106,7 |
| Qorao'zak | 6,3 | 106,6 |
| Kegeyli | 2,7 | 108,9 |
| Qo'ng'iro't | 57,3 | 106,5 |
| Qonliko'l | 2,9 | 108,2 |
| Mo'ynoq | 1,0 | 108,4 |
| Nukus | 2,2 | 109,3 |
| Taxiatosh | 5,6 | 106,8 |
| Taxtakopir | 1,6 | 109,5 |
| To'rtko'l | 15,6 | 106,7 |
| Xo'jayli | 13,8 | 107,7 |
| Chimboy | 7,1 | 110,3 |
| Shumanay | 1,2 | 109,9 |
| Ellikqal'a | 5,8 | 106,3 |

2024- yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **251,3** mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **108,0** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **100,0** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajmi, mlrd so'm | Ulushi, foizda |
|--|---------------------|-------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 634,0 | 100,0 |
| Nukus shahri | 1 018,2 | 62,3 |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 20,8 | 1,3 |
| Beruniy | 407,4 | 24,9 |
| Bo'zatov | 1,0 | 0,1 |
| Qorao'zak | 2,0 | 0,1 |
| Kegeyli | 129,5 | 7,9 |
| Qo'ng'iro't | 1,9 | 0,1 |
| Qonliko'l | 8,7 | 0,5 |
| Mo'ynoq | 0,9 | 0,1 |
| Nukus | 0,1 | 0,0 |
| Taxiatosh | 8,2 | 0,5 |
| Taxtako'pir | 2,6 | 0,2 |
| To'rtko'l | 13,4 | 0,8 |
| Xo'jayli | 4,3 | 0,3 |
| Chimboy | 5,0 | 0,3 |
| Shumanay | 1,5 | 0,1 |
| Ellikqal'a | 8,4 | 0,5 |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**1 018,2** mlrd so'm), Beruniy (**407,4** mlrd so'm) va Kegeyli (**129,5** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2024- yilning yanvar-avgust oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **1 634,0** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,8 %** ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **520,6** mlrd so'm (o'sish sur'ati – **92,0 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **1 113,4** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **120,7 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda




Respublika bo‘yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 075,9** mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **13,2 %** ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **2 583,9** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **105,8 %** ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **84,0 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 587 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 582 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nukus shahrida (126,3 %) va Taxiatoş tumanida (102,3 %) kuzatildi

| | Jami mlrd so'm | 2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda |
|--|-------------------|--|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 3 075,9 | 113,2 |
| Nukus shahri | 1 327,0 | 105,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Amudaryo | 110,6 | 118,5 |
| Beruniy | 114,3 | 102,0 |
| Bo'zatov | 1,1 | 106,3 |
| Qorao'zak | 9,3 | 101,6 |
| Kegeyli | 6,8 | 100,6 |
| Qo'ng'iro't | 33,9 | 115,3 |
| Qonliko'l | 236,0 | 716,9 |
| Mo'ynoq | 256,4 | 104,6 |
| Nukus | 42,5 | 105,3 |
| Taxiatoş | 330,8 | 102,2 |
| Taxtako'pir | 10,1 | 110,5 |
| To'rtko'l | 291,4 | 108,1 |
| Xo'jayli | 32,3 | 105,7 |
| Chimboy | 153,9 | 103,1 |
| Shumanay | 15,8 | 101,9 |
| Ellikqal'a | 103,7 | 107,7 |